
Milliy kurash bo'yicha "Bosh prokuror kubogi" g'oliblari aniqlandi

Yoshlar va o'smirlar o'rtasida sportni ommalashtirish, ayniqsa milliy g'urur va iftixor bag'ishlovchi o'zbek milliy kurashining ommaviyligini oshirishga keyingi yillarda yanada e'tibor qaratilayotgani bor gap.

Biroz avval xabar berib o'tganimizdek, bugun Rishton tumanida "Besh tashabbus" loyihasi doirasida milliy kurash bo'yicha "Bosh prokuror kubogi" musobaqasining final bosqichi o'tkazildi.

Final bosqichida tuman hokimi, tuman prokurori, tuman IIB boshlig'i, tuman DSI boshlig'i qatnashib, ishtirokchilarga omadlar tiladi

Shundan so'ng, kurashchi sportchilarimiz o'z vazn toifalarida musobaqalarda ishtirok etib, tuman birinchiligi uchun kurash olib boradilar va g'oliblar aniqlanib, viloyat bosqichida ishtirok etish yo'llanmasini qo'lga kiritishdi.

Taqdirlash marosimi ham o'zgacha tantanaga aylanib ketdi.

2022-10-29 12:41:20